MATNDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

Ravshanova Mo‘tabar Kamolovna,
Ichki ishlar vazirligi Qashqadaryo akademik litseyi o’qituvchisi
Shokhjahonakhmadov@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-9897-6455

Annotatsiya. *Ushbu maqolada til va madaniyat munosabatlarini aks ettiruvchi lingvokulturologiya hamda frazeologik birliklar haqida ma’lumot beriladi.Frazeologik birliklar ko‘chma ma’noda bo‘lib, nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida lingvomadaniy birliklardan sanalgan iboralar orqali o‘zbek xalqining madaniyati, urf-odat va qadriyatlari hamda boy ma’naviy merosi ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologiya, til, madaniyat, frazeologiya, leksika.*

KIRISH. Lingvokulturologiyaning asosiy tushunchasi madaniyat bo‘lib, bu so‘z arabcha madina “shahar” so‘zidan kelib chiqqan. Ma’lumki, arablar maishiy turmush hayotini ikkiga ajratgan: sahroyi, ya’ni badaviy hayot hamda shaharlik – madina hayoti. “Madaniyat” lotinchada “ishlov berish, tarbiyalash, rivojlanish, hurmat qilish, ibodat” ma’nolarini anglatadi. Rus tilida madaniyat ma’nosini anglatuvchi kultura so‘zi dastlab “insonning tabiatga ta’siri, inson manfaatlari yo‘lida tabiatni o‘zgartirish, ya’ni yerni ishlash ma’nosida qo‘llangan bo‘lib, XVIII asrdan boshlab ilmiy termin sifatida qaraladi [1.12]. Lingvokulturologiya til va inson munosabatlarini asosiy o‘ringa qo‘yadi. Til vositasida insonning ma’naviy qiyofasi va tashqi olam bilan munosabati yuzaga chiqadi va bu badiiy asarlarda ifodasini topadi. Badiiy asarlarda muallif va qahramon nutqi vositasida millat mentaliteti, o‘ziga xos jihatlari ifodalanishida lingvomadaniy birliklar muhim o‘rin tutadi. Til tadqiqida inson omilining yetakchi o‘rin egallashi masalasi V.fon Gumboldtning “xalq ruhi” haqidagi g‘oyalariga borib taqaladi. Olimning fikricha, bu turli tillarning o‘ziga xos tomonlari, ular o‘rtasidagi farqlarning asosida yotuvchi eng oliy prinsipdir. Mazkur tushuncha ostida tilshunos olim xalqning

ruhiy o‘ziga xosligi, intellektual qadriyatlar, milliy madaniyat tushunchalarini nazarda tutib, moddiy va madaniy ma’naviyat tilda mujassamlashuvini, til bilan “xalq ruhi”ning o‘zaro uzviy bog‘liqligini, hatto ularning tengligini ta’kidlagan edi [2.20].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Frazeologiya (yunoncha “phrasis” – ifoda, ibora va logiya) tilshunoslikning shunday bir bo‘limiki, boshqa bo’limlardan nutqqa tayyor holda kirib kelishi, leksik va semantik jihatdan o‘zaro mos kelmasligi, ma’no jihatdan turg‘unligi bilan farq qiladi. Milliy-madaniy semantika tilshunoslikning barcha bo‘limlarida, morfologiyada ham sintaksisda ham hattoki fonetikda ham aks etgan bo‘ladi. Faqat u millat madaniyatini bevosita aks ettira oladigan, yaxlit, so’zlashuv nutqida ko‘p qo‘llanadigan frazeologik birliklarda yorqinroq ifodalanadi. Frazeologiya alohida fan sifatida shakllanguniga qadar u leksikologiyaning tarkibi sifatida qaralgan. Frazeologiya muammolariga dastlab rus tilshunoslari qiziqa boshlagan bo’lsa-da, u alohida termin sifatida ilk bor g’arb tilshunosi Sh. Balli tomonidan qo’llanilgan.Til tadqiqida inson omilining yetakchi o‘rin egallashi masalasi V.fon Gumboldtning “xalq ruhi” haqidagi g‘oyalariga borib taqaladi. Olimning fikricha, bu turli tillarning o‘ziga xos tomonlari, ular o‘rtasidagi farqlarning asosida yotuvchi eng oliy prinsipdir. Mazkur tushuncha ostida tilshunos olim xalqning ruhiy o‘ziga xosligi, intellektual qadriyatlar, milliy madaniyat tushunchalarini nazarda tutib, moddiy va madaniy ma’naviyat tilda mujassamlashuvini, til bilan “xalq ruhi”ning o‘zaro uzviy bog‘liqligini, hatto ularning tengligini ta’kidlagan edi [2.20]. Frazeologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlari, ma’naviyati, axloqi va h.k. haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo‘ladi. Masalan, *ko‘rpasiga qarab oyoq uzatmoq* “imkoniyatini hisobga olib ish tutmoq”, *tanobini tortmoq* “faoliyat doirasini, imkoniyatini cheklab qo‘ymoq”, *to‘ydan ilgari nog‘ora qoqmoq* “ro‘yobga chiqishi aniq bo‘lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtidan oldin gapirmoq”, *to‘nini teskari kiyib olmoq*

“o‘chakishgan holda qaysarlik qilmoq”, *xamir uchidan patir* “katta ko‘p narsadan boshlang‘ich va kichik bir qism”, *xirmon ko‘tarmoq* “ekin-tikinni yig‘ib, hosil meyorini hisob-kitob qilmoq”, *Xo‘ja ko‘rsinga* “shunchaki nomigagina”, *Xizrni yo‘qlasam bo‘lar ekan* “kimnidir ko‘rish istagi qo‘qisdan ro‘yobga chiqqanda aytiladigan ibora”. Lingvokulturologiyaning predmeti madaniyatda ramziy, obrazli va metaforik ma’no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona va diniy diskurslarda, poetik va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda va ramzlarda aks etadigan til birliklari sanaladi [2.28]. Frazeologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlari, ma’naviyati, axloqi va h.k. haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo‘ladi. Masalan, *ko‘rpasiga qarab oyoq uzatmoq* “imkoniyatini hisobga olib ish tutmoq”, *tanobini tortmoq* “faoliyat doirasini, imkoniyatini cheklab qo‘ymoq”, *to‘ydan ilgari nog‘ora qoqmoq* “ro‘yobga chiqishi aniq bo‘lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtidan oldin gapirmoq”, *to‘nini teskari kiyib olmoq* “o‘chakishgan holda qaysarlik qilmoq”, *xamir uchidan patir* “katta ko‘p narsadan boshlang‘ich va kichik bir qism”, *xirmon ko‘tarmoq* “ekin-tikinni yig‘ib, hosil meyorini hisob-kitob qilmoq”, *Xo‘ja ko‘rsinga* “shunchaki nomigagina”, *Xizrni yo‘qlasam bo‘lar ekan* “kimnidir ko‘rish istagi qo‘qisdan ro‘yobga chiqqanda aytiladigan ibora”. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida frazeologik birliklar ifodalangan bo‘lib, bunda xalq madaniyati va urf-odatlari aks etadi.

XULOSA. Olamning lisoniy manzarasini yaratishda lingvokulturemalar: frazeologizmlar, xalqning paremiologik fondi, o‘xshatishlar, metaforalar, ramzlarning o‘rni beqiyos. Ularda til egasining dunyoqarashi, madaniy-tarixiy an’analari aks etadi. “O‘tkan kunlar” romanida uchrovchi lingvokulturemalar ham bir paytning o‘zida xalq madaniyati va til xususiyatini namoyon eta oluvchi lingvistik va madaniy vositalardir. Frazeologizmlarni chuqur o‘rganish nafaqat tilning lug‘aviy imkoniyatlarini anglash, balki xalqning milliy tafakkuri va madaniyatini tushunish uchun ham muhimdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебник. М., 2001. -С.12.

Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. –Toshkent, 2019. - 20-bet.

Mamatov A.E. O`zbek tili frazeologizmlarning shakllanishi -T., 1997.

Narimonova Z. Frazeologik iboralarning tarjimasi haqida.//O`zMU to`plami, 2007.

Abdulla Qodiriy.O‘tkan kunlar.G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi.Toshkent-2017.